

№ 1398

2026 yil «1» «may»

Bankning 2025-yil 25-yanvardagi 510-sonli buyrug'i bilan tender (keyingi o'rinlarda - tanlash) bo'yicha xaridlarni amalga oshirish maqsadida Tender komissiyasi tarkibi tasdiqlangan.

Bank Boshqaruvining 2025-yil 13-noyabrdagi 649-sonli Qarori bilan "O'zsanoatqurilishbank" ATB tizimida xaridlarni amalga oshirish Tartibi tasdiqlangan.

Ushbu tartibning 2-bandida Bank tomonidan tanlash savdolarini o'tkazish uchun kamida **7 (yetti)** nafar a'zodan iborat kollegial organ bo'lgan "**Tender komissiyasi**" shakllantirilishi belgilangan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Bosh Bankda xaridlarni amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq tashkil etish hamda kollegial organlar rahbari va a'zolari o'rtasidagi ish hajmini to'g'ri taqsimlanishini tashkil etish maqsadida,

BUYURAMAN:

1. Bankda Tender komissiyasi quyidagi yangi tarkibda tuzilsin:

Tender komissiya raisi - **A.Ergashev** - Boshqaruv Raisining birinchi o'rinbosari;

Tender komissiya raisi o'rinbosari - Buxgalteriya hisobi va hisoboti departamenti direktori o'rinbosari - **A. Xujamuratov**;

Tender komissiyasi a'zolari:

Moliyaviy menejment markazi rahbar o'rinbosari - **Sh. Karimov**;

Bank kartalari tizimlarini qo'llab-quvvatlash departamenti direktori - **M. Karimov**;

Yuridik departamenti Sud va xuquqni muxofaza qilish organlari bilan ishlash xizmati bosh menejeri - **A. Yarashov**.

Kreditlarni ma'qullash departamenti direktori – **S. Sanjarov**.

Loyiha boshqaruv departamenti direktori – **Sh. Jumayev**.

2. Komissiya a'zosi mehnat yoki o'quv ta'tilida, vaqtincha mehnatga layoqatsiz yoxud xizmat safarida bo'lganida, uning vazifalari vaqtinchalik yuklatilgan yoki lavozim yo'riqnomasi bo'yicha vazifasini bajaruvchi shaxs komissiyada ishtirok etadi.

Komissiya a'zosi boshqa ishga o'tganda, u bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganda, komissiya tarkibiga ushbu lavozimga yangi tayinlangan yoki vazifasini bajarish zimmasiga yuklangan shaxs kiradi.

3. Shu munosabat bilan Bankning 2025-yil 25-yanvardagi 510-sonli buyrug‘i o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

4. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish Boshqaruv Raisining birinchi o‘rinbosari A. Ergashev zimmasiga yuklatilsin.

Boshqaruv Raisi:



A.Akbarjonov

kelishuvchilar: A.Islamov, U.Aminova, A.Ergashev, S.Kurbonbekov

<https://hujjat.sqb.uz/?pin=vS89tT84&id=c92ceaf0-9759-462d-bb71-89a122994a6a>